

8/6

Yoshlarning sanoat va tadbirkorlik zonalarida amalga oshiriladigan loyihalarini moliyalashtirish uchun 100 000 dollargacha kredit ajratildi.

Kredit muddati:
7 yil

Imtiyoz davri:
3 yil

Kredit stavkasi:
14 foiz

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

33 (16486)
2022-yil, 28-may
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Yoshlar siyosati
2-bet

Bizga mehribonlik
uydari kerakmi?

Qutlov
4-5-betlar

"Uch avlod
uchrashuvi"

Mahallada yoshlar yetakchisi
6-bet

"Tarvuzga
keling!"



Foto: Anvar TO'YCHIVEV

MATONAT

ZOMIN TUMANIDA TASHKIL ETILGAN OROMGOH IMKONIYATI
CHEKLANGAN YOSHLARNING BILIM SALOHİYATINI OSHIRADI

6-betga
qarang ↓

BIZGA MEHRIBONLIK UYLARI KERAKMI?

Temur 9-sinfni bitirdi. Tashqaridan begona odam kelsa, xuddi uni qidirib ketgandek, hali ham yaqinlarini izlaydi. Undan "sen bu yerga qanday kelib qolgansan?", deb so'lashadi. Bola ko'zi to'la yosh bilan onasi Chorsu bozoriga olib borib, "sen shu yerda o'tirib turasan", deb tashlab ketganini aytadi. "O'shanda bir kun onam kelishini kutgandim", – deydi bola. Bolaligidagi bu xotiralar uning qalbida chandiq bo'lib qolib ketgan. Hali ham bir kun onamni kutgan joyimni eslayman, deya xo'rsinadi, meni hech kim so'ramadimi, hech kim telefon qilmadimi, deb surishtirib yurarkan...

Temurdek bolalarni ko'rganingizda ularning mahzun ko'zidan qarshisida uchragan har bir insondan ota-onasini qidirayotganini anglaysiz. Mehribonlik uylarida mehr va g'amxo'rlikning o'rnini to'ldirish uchun bolalarga barcha sharoitlar yaratilmoqda, biroq hech kim – xoh u pedagog bo'lsin, xoh eng yaxshi odam bo'lsin, ota-onasi va yaqinlarining o'rnini bosa olmaydi.

O'zbekiston va qo'shni davlatlar tajribasini o'rganib, shuni angladimki, davlatning barcha xatti-harakatlariga qaramay, bolalar uylari ota-onasiz qolgan hamda nogiron bolalar uchun yagona chora bo'lib qolmoqda. Yetimlikni bartaraf etish va ota-ona mas'uliyatini yaxshi anglamaydigan oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirish esa bu masalaga yagona yechimdir. Shu bois nogiron yoshlarning sog'lig'ini muhofaza qilish, ularga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'lgan "Bolalar jamoat fondi" tashkil qilindi.

Tarbiya muassasalarida istiqomat qilayotgan yetim va nogiron yoshlar hamda vasiylik va

homiylikka olingan bolalar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar [@yoshlardaftari.uz](https://yoshlardaftari.uz) elektron platformasida integratsiya qilindi. Mehribonlik uyi bitiruvchilari, nogiron hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar "Yoshlar daftari"ga kiritilib, ularning 10 345 nafariga haydovchilik kurslarida o'qish, safarbarlik chaqiruv rezervi hamda davolanish xarajatlari to'lash bilan birga amaliy yordam ko'rsatildi.

Yangi turmush qurgan "Yoshlar daftari"dagi oilalarga esa "Yoshlar daftari" jamg'armasi kafilligida tijorat banklari tomonidan o'zlarini istiqomat qilib turgan yakka tartibdagi uy xo'jaligida 33 million so'm miqdorida garovsiz kredit ajratish yo'liga qo'yildi. Chin yetim, ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan va Mehribonlik uyida tarbiyalangan hamda nogiron yoshlar uchun "Yoshlar ta'lim granti" loyihasi doirasida o'tgan bir yil davomida ijtimoiy himoyaga muhtoj 203 nafar talabani 475 million 834 ming so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari beg'araz to'lab berildi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni sifatli oliy ta'lim bilan qamrab olish, IT (informatson texnologiya) sohasiga qiziqishlari-

“

RASMIY MA'LUMOTLARGA KO'RA, RESPUBLIKAMIZDA 6 TA MEHRIBONLIK UYI, 117 TA OILAVIY BOLALAR UYLARI HAMDA 3 TA "SOS" BOLALAR MAHALLASI MAVJUD.



ni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy kasblarni egallashiga ko'maklashish maqsadida "Imkon" grant loyihasi e'lon qilindi. O'tgan qisqa fursat ichida 300 nafarga yaqin talabgor ushbu loyihada ta'lim olib, 132 nafari "SMM" hamda "grafik dizayn" yo'nalishlarida bandligi ta'minlandi.




Foto: Rustam NAZARMAT

Sharofiddin XONIMOV,

Yoshlar ishlari agentligining ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i

**YANGI LOYIHA –
IMKONIYATING
CHEKSIZ!**




Loyihada imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, hayotda munosib o'rnini topayotgan yoshlar haqida so'z boradi. Bunda mahallalarda yoshlar yetakchilarining 13 imkoni doirasida nogiron yoshlarga yordam qo'lini cho'zib, ularning imkoniyatini yuzaga chiqarayotgan yoshlar yetakchilari ishtirok etishi mumkin.

Ular mahallalarda nogiron yoshlar bilan ishlab, ularga kasb-hunar o'rgatish, qo'llab-quvvatlash, umumiy ma'noda 13 imkonning 12, 13-bandlarida berilgan vazifalarni qamrab oladi. Bu vazifalar doirasida amalga oshirayotgan ishlaringiz haqida batafsil [@YO_tahririyati_bot](https://t.me/YO_tahririyati_bot) manziliga yuboring. Biz ularni gazetemizda e'lon qilib boramiz.

Loyiha mualliflari:
Iqbol PARDAYEVA,
Mashhura NASRIDINOVA

IMKONIYATLAR BOYLAR UCHUN...(MI?)



Kim kuchli bo'lsa, o'lja o'shaniki – bu changalzor qonuni. Eng kuchlilar doim tepada. Nafaqat hayvonot, insoniyat ham bundan mustasno emas. Faqatgina bu iyerarxiya insoniyatning sivilizatsiya darajasiga ko'ra gorizont tallashib boradi.

Moziyga nazar tashlasak, avvallari jamiyatning iyerarxiyalashishi ochiqdan-ochiq va hatto qonunlar bilan belgilab qo'yilgan: dehqonlar, yer egalari, harbiylar, din peshvolari va qirollar oilasi. Keyinchalik bular shunchaki irqchilik bilan izohlana boshladi: qora tanlilar, oq tanlilar, qullar.

Bugun esa tan olinishi kerakki, iyerarxiya mavzusiga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashilmoqda. Masalan, rivojlangan, rivojlanayotgan va kambag'al davlatlar emas, balki kamroq rivojlangan davlatlar deb ataladigan bo'ldi. Hujjatlarda yuqori, o'rta va quyi daromad sinfi deb atalsa-da, bu atamalar hech kimga ochiqdan-ochiq tamg'a qilib bosilmaydi.

Ammo ba'zi sohalaridagi o'zgarishlarni ko'rib, har qanday jamiyatda ijtimoiy imtiyozlar va vakolatlar teng taqsimlanmagani, boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy tengsizlik istisnosiz barcha jamiyatlarga xos ekaniga amin bo'lasiz.

Masalan, kuni kecha Toshkent xalqaro aeroportida "Fast Track" xizmati ishga tushirilishiga "xalqimiz uchun qulayliklar yaratilmoqda" degan izoh berildi. Qulaylik yaratilgani-ku to'g'ri, lekin bu qulaylik xalq uchunmi?

Avvalo, xizmat haqida to'xtalsak: bu yo'lovchilarga reysga ro'yxatdan o'tish, bojxona va pasport nazorati, shuningdek, parvoz oldidan tekshiruvlardan navbatsiz o'tish imkonini beradi. "Fast Track" xizmatiga to'lov amalga oshirilganidan so'ng aeroport xodimi yo'lovchini maxsus koridor bo'ylab "steril" zonagacha kuzatib boradi va u yerdan yo'lovchi mustaqil ravishda bortga chiqadi. Xizmat narxi **170 000 so'm!**

Oila a'zolari bilan uchayotgan yo'lovchilar uchun "Oilaviy" paketi ham bor. Pulini to'lasangiz, "ANOR" biznes komfort zalida kutish xizmati ham tayyor turibdi!

Evrika! Pulini to'lasangiz, biznes klass ham tayyor, qo'shimchasiga parvoz oldidan tekshiruvlardan navbatsiz o'tib ketaverasiz! Pulingiz yo'qmi, unda sizga sabr tilaymiz. Amallab yiqqan pullaringizga chipta olasiz-da, sayohatga yoki asal oyiga ketayotgan keng imkoniyatlar yaratilayotgan "xalq"ning navbatsiz o'tishiga qarab o'tiraverasiz. Xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, tezkorlikni oshirib, navbatlarni kamaytirish esa hozircha hech kimni qiziqtimayapti. Faqat ozchilikni tashkil qiladigan puldollar uchun afzalliklar yaratilib, ularga "xalq" deb nom qo'yilmoqda.

Menimcha, avval mana bu savollarga javob topib olishimiz kerak: imkoniyatlar aslida kimlar uchun ko'proq foydali bo'lishi kerak, ozchilikmi yoki ko'pchilik uchun? Ozchilik kim-u ko'pchilik kim? Birgina bu emas, tonirovka, ta'lim, tibbiyot sohasidagi afzalliklardan faqatgina moddiy imkoniyati yetarli, boy insonlarga foydalanishi, qolgan aholi qatlamini bunday imkoniyatdan mahrum qilishni nazarda tutuvchi tartib adolatlimi?

Ijtimoiy tengsizlikning barcha turlari mamlakat uchun xavfli, ular ichida, ayniqsa, ta'lim tizimidagi tengsizlikni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Poygaga aylanib ketayotganday. Unda kim ko'proq to'lasa, o'sha g'alaba qozonadi. Nufuzli universitetlarda, asosan, boylarning farzandlari o'qiydi, negaki yaxshi universitetga kirish uchun yaxshi litseyga bitirish kerak, yaxshi litseyga kirish uchun esa yaxshi boshlang'ich maktabda o'qish kerak.

Ana maktab, yaxshi o'qisa, yo'li ochiq deysizmi? Viloyatdagi maktablarni-ku qo'ya turaylik, poytaxt va unga tutash tumanlarning chekka hududlariga bir razm soling. Ingliz tilidan dars beruvchi o'qituvchi yetishmaydi, matematika o'qituvchisi fizikadan ham, informatikadan ham dars beradi. Laboratoriya xonalari haqida gapirish og'riqli masala. Bunday sharoitda nima qilish kerak? Repititorga borish yoki o'qituvchi yollash kerak. Bu imkoniyatga egalari esa ozchilik qatlam hisoblanadi.

Oddiy aksioma – boy odam daromadining atigi 5 foizini kundalik birlamchi ehtiyojlari uchun ishlatasa, kambag'al odam deyarli 90 foizini shu maqsadga sarflaydi. Oilasidan va ro'zgoridan orttira olmaydigan oddiy aholi vakillarida ayni vaqtda tonirovka, "Fast Track", chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riqdan o'tish yoki farzandini nufuzli oliy o'quv yurtida o'qitish uchun to'lashga ortiqcha mablag' yo'q. Biroq ular jamiyatning ko'pchilik qatlamidir.

Shunday ekan, biz xalq uchun imkoniyat yarataymizmi yo ozchilik uchun? Hamma ko'rib turgan tengsizliklarni "xalqimiz uchun yaratildi" degan jumla bilan "ko'pirtirib" aytish qaysi adolat mezoniga to'g'ri keladi?!

Aslida hamma uchun umumiy farovonlik yarata oladigan jamiyatgina tom ma'noda farovonlikka erishadi. Ijtimoiy jarlik yaratilgan jamiyatlarda esa ozchilikning manfaatlari ko'pchiliknikidan ustun kelaveradi.

Shahruza SATTOROVA



177 IMKONIYAT KASBIY MALAKAGA EGA YOSHLAR UCHUN IMTIYOZLAR

Prezidentimizning 2020-yil 11-avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan kasbiy malakaga ega yoshlar uchun imtiyozlar belgilangan.

Unga ko'ra, nodavlat kasb-hunarga o'qitish muassasalarida ta'lim olgan hamda WorldSkills va boshqa xalqaro standartlar darajasida kasbiy malaka sertifikatini (Skills pasporti) qo'lga kiritgan bitiruvchilarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan:

- ▶ kasb-hunarga o'qish va malaka imtixonini topshirish xarajatlari qoplanadi;
- ▶ tadbirkorlikka jalb etish va o'zini o'zi band qilganlik uchun rag'batlantirish subsidiyalari ajratiladi;
- ▶ o'z biznesini boshlashi uchun imtiyozli kredit ajratishga yo'llanma beriladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Imtiyozdan nodavlat kasb-hunarga o'qitish muassasalarida hamda WorldSkills va boshqa xalqaro standartlar darajasida kasbiy malaka sertifikatini (Skills pasporti) olgan bitiruvchilar foydalanishi mumkin.

Bunda subsidiya va kredit ajratish mehnat organlari yo'llanmasi bilan amalga oshiriladi. Shu sababli imtiyozdan foydalanish uchun imtiyozli toifaga mansub shaxslar tuman va shahar aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga murojaat qilishlari lozim.

Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan. Imtiyozni qo'llash bo'yicha murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

“UCH AVLOD UCHRASHUVI”

CHIN JURNALISTLAR OSHYONI



**Jabbor
RAZZOQOV,**
Yoshlar gazetasi
1985-1997-yillardagi bosh
muharriri, O'zbekistonda
xizmat ko'rsatgan jurnalist

Yoshlar matbuoti milliy adabiyotimizning ulug' namoyandalari uchun chinakam ijod maktabi bo'lib xizmat qilgan. Eng taniqli adib va shoirlarimiz shu dargohda ishlab, ilk ijod mahsulini e'lon qilgan. Ular o'z xotiralarida bu qaynoq, unutilmas damlarini quvonch bilan eslab, yozib qoldirgan.

Men o'tgan asrning 80-yillarida yoshlar gazetasiga bosh muharrir bo'lgunimcha shu dargohda ishlab "suyagim qotgan", o'zimning shaxsiy fikr-o'yim to'la shakllangan edi. O'sha yillar shiddatli bir "bo'ron" yaqinlashayotgan, o'ziga xos jo'shqin va qaynoq damlar edi. O'zgina erkinlik nafasi esib, biz jurnalistlar uchun uzoq yillar kutgan haqiqat darchalari eshigi ochila boshlagandi. Mustabid tuzum kirdikorlarini baralla ochib tashlash, qatag'on qurbonlari taqdirini yoritish, "o'zbeklar ishi", "paxta ishi"ni ro'y-rost ko'rsatib berish, armiya safidagi o'zbek o'g'lonlarining xizmatini kamsitilishiga chek qo'yish, afg'on urushining asl mohiyatini fosh etish - bularning

Sharof RASHIDOV tahririyat mehmoni.



Arxiv foto

barchasi o'sha davr yosh jurnalistlari zimmasidagi, fikr-o'yidagi tashvishlar edi.

Ishni tahririyatda ijodiy muhitni tubdan yaxshilash, erkin ijodni kamol toptirishdan boshladim. Gazeta yo'nalishini maqola va xabarlar mavzusini o'zgartirdim, sahifalar mohiyatini yoshlarga moslashtirdim, tarixning jirkanch tomonlarini oshkora ko'rsatib berishga e'tibor qaratdim. Buning uchun hayo, iste'dodli, hech nimadan hayiqmaydigan yosh jurnalistlarni ishga oldim. Ularga o'z uslublarida ijod qilishiga sharoit qilib berdim, shaxsan o'zim nazorat qildim va qo'llab-quvvatladim.

Birgina misol: 1989-yilning boshlarida "Davlat tili to'g'risida"gi qonun loyihasi gazetamizda umumxalq muhokamasiga qo'yilgan edi. Ko'pgina nashrlarda ikki tillilikka moyil maqolalar e'lon qilinar, hali hamma mustabid tuzum ta'sirida yashar edi. Biz esa hech narsadan hayiqmay faqat o'z ona tilimizni Davlat tili maqomiga yetkazish haqida o'ylar, turkum maqolalar berardik. O'sha muhokamalarning birida milliy universitetning ikki ustoz va



Arxiv foto

“

1989-YILNING BOSHLARIDA
"DAVLAT TILI TO'G'RISIDA"GI
QONUN LOYIHASI
GAZETAMIZDA UMUMXALQ
MUHOKAMASIGA
QO'YILGAN EDI.

shogird olimining "Chala tug'ilgan bola" nomli maqolasi e'lon qilindi. Bu maqola hajmi kichik bo'lsa ham, hammaning, hatto respublikamiz rahbarining ham e'tiborini o'ziga tortdi. U kishining taklifi va talabi bilan qonun loyihasi qayta tayyorlanadigan bo'ldi. Bu qonunni tayyorlash bo'yicha respublika komissiyasi tarkibi tubdan o'zgartirildi, taniqli shoir va adiblar, olimlar qatorida men va o'sha davrda ancha tanilib qolgan dovyurak shoir Mirza Kenjabek ham komissiyaga kiritildik.

Davlat tili qonuni xalq qalbidagi azaliy orzu-umidlarni to'la o'zida aks ettirib, milliy davlatchilikning yangicha an'analari asosida tayyorlandi va qabul qilindi. Ijodiy jamoamiz qat'iylikda hammaga ibrat bo'lib, xalqimizning fidoyi farzandlari - Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi o'nlab qatag'on qurbonlarining taqdirini to'laqonli yoritish uchun bir necha yil izlandi. Hali ko'pchilik bilmagan, his qilmagan voqea-hodisalarni guvohlar, tarixiy hujjatlar asosida yozib, mustabid tizimning asl qiyofasini fosh qildilar.

Gazeta ijodkorlari xalqimizning buyuk farzandi Sohibqiron Amir Temur bobomizning hayoti va faoliyatlarini o'sha davrning tarixiy kitoblari, xorijiy sayyohlarning xotiralarini asosida to'laqonli yoritib, adolat qaror topishiga o'z hissarlarini qo'shdi. Gazeta tashabbusi bilan "Amir Temur yurgan yo'llar bo'yab" ekspeditsiyasi tashkil etildi. Hali mustabid tuzumning "qilichi" ustimizda o'ynab turgan bir paytda bunday harakatlarni amalga oshirish chinakam jasorat edi.

Taniqli adib Muhammad Alining "O'z-o'zingni anglab ol" nomli publitsistik maqolasi o'zining dolzarbligi, milliyli bilan o'sha davrdagi eng yorqin va jasoratli chiqishlardan biri bo'ldi. Bu maqolani o'qimagan inson qolmadi, desam mubolag'a bo'lmas. Qardosh turk, qozoq, ozarbayjon xalqining millatparvar ziyolilari ham shu maqolani o'qib, o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Hatto, okean ortidagi vatandoshlarimiz ham xatlar yo'llab, muallifni va gazetani olqishladilar.

Biz har bir chiqishimiz bilan nafaqat jirkanch o'tmishni fosh qilish, haqiqat va adolatni qaror toptirish, ayrim amaldorlarning kamchilik va kirdikorlarini ayovsiz tanqid etib, istiqlol uchun kurashishning oldingi saflarida turishga intildik.


Gazetaning "Turkiston" nomi bilan chiqishining o'zi bir tarix. Orziqib kutilgan damlar ham yetib keldi: mustaqillik shabadasi baralla esa boshladi. Gazeta nomini o'zgartirish davr talabi edi. Biz bu mas'uliyatli vazifani ado etishni

mushtariyolar e'tiboriga havola etdik. Dunyoning turli burchaklaridan xatlar oqib kela boshladi. Takliflar ham turli bo'lgan, ular mingdan oshdi. E'lon qildik, bir sahifa bo'ldi. Komissiya tuzilib, eng munosiblarini tanlab oldik. So'nggi muhokamada "Yosh Turkiston", "Turkiston" nomlari qoldi. Hamma bir ovozdan "Turkiston" nomini berishga qaror qilishdi. Muassislar taklifimizni ma'qulladi. Shunday qilib, gazeta 1991-yilning 1-yanvaridan "Turkiston" nomi bilan nashr etila boshladi.

Gazetaning birinchi nomi unga o'zga bir ruh, kuch-qudrat va ommaviylik bag'ishladi. E'lon qilinayotgan maqolalarga munosabat ham yanada jiddiylashdi. Respublikamizning yetakchi vazirlari, Bosh prokuror tahririyatga tashrif buyurib, bevosita muloqotda faol qatnasha boshladi. Eng dolzarb mavzularda chiqishlar qilgan gazeta mualliflari mas'uliyatli vazifalarga ishga taklif etildi. Bunday e'tibor gazetaning obro'sini yanada ko'tarib, ommaviylikni oshirdi. Gazeta adadi million nusxaga yetib bordi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bir nusxani o'rtacha 10 kishi o'qisa, gazetani 10 million adam o'qiydigan bo'ldi. Bu o'sha davr uchun katta yutuq edi.

Yoshlar nashri qoshidagi "Yosh muxbirlar universiteti" (2 yillik) va "Shu'la" ijodiy uyushmasi o'sha davrdagi eng iste'dodli ijodkor, navqiron avlod uchun haqiqiy mahorat maktabi bo'lgan. Bugungi taniqli yozuvchi va shoirlar, jurnalistlarning ko'pchiligi shu ijodiy manzilgohlarda tajribali ustoz, qalam aholidan saboq olgan, ijod sirlarini o'rgangan. Ularning ko'pchiligi hozirgi kunda o'zbek milliy matbuotining yetakchi nashrlariga rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda. Demak, "Turkiston" maktabida toblangan ijodkorlar xalqimizga sidqildan xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda bu tahririyatda asos solingan ijodiy maktab, an'ana "Yoshlar ovozi" gazetasi misolida yangi bir qiyofada, yanada yorqin yo'nalishda davom etmoqda. Yangi O'zbekistonning poydevorini bunyod etishda faol qatnashayotgan o'g'il-qizlarni ulkan zafarlar sari da'vat etishda jurnalistlar yanada faol ijod qilmoqda. Ularning rejalarli ulkan. Bu mas'uliyatli ishlarda ularga ijodiy muvaffaqiyatlar tilab qolaman!



Arxiv foto



**Muqaddas
ABDUSAMATOVA,**
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat
xodimi, mehnat faxriysi

Hayot meni siyladi, erkaldi desam, xato bo'lmas. Chunki mehnat faoliyatimni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida boshladim. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'ZMU)ning kechki bo'limiga o'qishga kirdim. Uyushmada G'afur G'ulom, Oybek, Komil Yashin, Uyg'un, Shuhrat, Asqad Muxtor, Shayxoda va yana o'nlab alloma ijodkorlarni ko'rib, suhbatlaridan bahramand bo'lish menga qanot baxsh etdi. Ayniqsa, Muzayyana opa, Zulfiya opa, Saïda opa men o'tiradigan mo'jaz xonada bir piyola choy ustida suhbatlashib qalishsa, mendan baxtiyor adam yo'q edi. Shu suhbat shu davrlar meni hayotga tayyorladi, ummi mazmunli o'tkazishga da'vat etdi. Halollik, poklikka, yurtni sevishga, vatanparvarlikka o'rgatdi.

1965-yili yoshlar gazetasiga ishga o'tganimda bu xislatlar qalbimning tub-tubidan joy olgan edi. Bu yerda Abdulazal Vahobov, Muhammadjon Qo'shoqov, Rustam Shog'ulomov, Barot Boyqobilov kabi qalbi daryo, mehribon, muruvvatli ustozlarga duch keldim. Jamoadagi birdamlik, ijodiy muhit, vazifamni bajarishga mas'uliyat qanchalik kuchayganini payqadim.


O'sha paytda Barot Boyqobilov adabiyot va san'at bo'limining ishi naqadar qiyin, lekin zavqli ekanini qayta-qayta uqtirgan. Ishning zavqliligi bo'limga bir kunda mingdan ortiq xat kelishi edi. Har bir xat ortida egasi borligi, unga munosib javob qilishimiz zarurligi ikkinchi olam edi. Chunki har bir xat hisobda turadi. Ularning har biriga muomala qilish, yuborilgan hikoya, she'rdagi "yilt" etgan nur bo'lsa, qayta ishlab, gazetada chiqarish yoki alohida kamchiligini to'la isbotlab javob yozish zarur edi.

Gazetada adabiyot va san'at bo'limini o'ttiz yildan ortiq boshqardim, o'sha bolalikdagi go'zal-

"Yoshlar ovozi"

gazetasi qariyb bir asrlik tarixga ega nashr. Gazeta mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini keng yoritish, yosh avlodning orzu-istak va maqsadlarini omma e'tiboriga havola etish, yosh va qalami o'tkir journalist kadrlarni tarbiyalash borasida katta maktab yaratgan.

Bugun ushbu boy tajribalarni almashish, ularni yoshlarga ibrat qilib ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi ko'magida **"Yoshlar ovozi"** (sobiq "Turkiston") gazetasida uzoq yillar samarali mehnat qilgan matbuot faxriylari, professional jurnalistlar hamda yosh qalamkashlar ishtirokida **"Uch avlod uchrashuvi"** tadbiri bo'lib o'tmoqda.



Arxiv foto

lik nashidasi, alloma ijodkorlardan olgan o'g'itlar, ayniqsa, Xalbek Yodgorov, Ma'ruf Nazarov, Laziz Qayumov, Farida Usmonova kabi jurnalistlar ibratli, To'g'on Ernazarov, Anvar Shomaqsudov, Saydi Umirovlar sabog'i menga hamqadam bo'ldi. Hayot yo'limni charog'on etdi. Odamlar orasida ko'p bo'ldim, mehnat safarlarida yurib, yoshlar hayotini o'rgandim. Tahririyatga kelgan arznomalarni hal etib qaytgan paytlarim ko'nglim taskin topardi.

Bizning jamoa boshqa gazetalar uchun kadrlar bazasi hisoblangan. Bo'limda birga xizmat qilgan Amirqul Karim, Umida Abduazizova, Qo'chqor Norqobil, Sirojiddin Raupov kabi qalam ahllarining bugungi kundagi yutuqlaridan hamon quvonaman. Hayotim sahifasini varaqlasam, yorqin lahzalar bisyor.

Demakki, halol, sidqildan qilingan mehnat mukofotsiz qolmaydi.

IBRAT MAKTABI



Arxiv foto



ISHSIZLAR O'QITILADI

Lobar QODIROVA



Azimjon AZIMOV,
Yakkasaroy tumanidagi
"Muhandislar" mahallasi
yoshlar yetakchisi:

– O'quv yili nihoyalangach mahallalarda band bo'lmagan yoshlar soni keskin oshadi. Ularni biror sohaga yo'naltirib band qilish bizning asosiy vazifalarimizdan biri. Ammo bu oson emas. Bu borada qandaydir yangi loyihani yo'lga qo'yish kerak.

Shu maqsadda mahallamizda joylashgan "Kichik sanoat zonasi" hududidagi tadbirkorlar bilan uchrashib, ularga qaysi sohaga ixtisoslashgan kadrlar yetishmayotganini so'rab bildim. So'ng mahallamiz muammolarini hal qilish uchun birlashtirilgan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti rektori Ilhomjon Sobirov bilan uchrashib, mahallamiz yoshlariga sanoat zonasi uchun zarur bo'lgan mutaxassislik bo'yicha o'quv kurslari tashkil qilib berishini iltimos qildim. U kishiga taklifim ma'qul bo'ldi. Mahallamiz yoshlari uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil qilib, zarur mutaxassislarni tayyorlab, sertifikat berishini aytdi.

Loyiha doirasida to'qimachilik, buxgalteriya, asbob-uskunalar avtomatlashtirish va robototexnika, uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish, mahsulot sifati va menejmenti sohalari bo'yicha 100 nafardan ortiq yoshlar o'qib, kasb o'rganadigan bo'ldi. O'qish yozgi ta'til vaqtida olib boriladi.

“

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar auksion orqali olgan yerlaridan hosilni yig'ib olmoqda.

Muzrabot tumanidagi "Yakkatol" mahallasida yashovchi Jasur Murodov ham 2022-yil mart oyida "Yoshlar daftari"ga kiritilib, auksion orqali 10 yil muddatga o'zi va turmush o'rtog'i uchun 40 sotix yer olgandi.

Unga Yoshlar ishlari agentligi Muzrabot tumani bo'limi tomonidan subsidiya asosida tarvuz urug'i ajratilib, yer ham ekinga tayyorlab berildi. Qolgan xarajatlar uchun o'z hisobidan 3 million so'm mablag' sarflagan Jasurbek hozir bir-biridan mazali tarvuzlarni sotuvga chiqardi.


Hosildan 30 million so'mdan ortiq daromad olishni maqsad qilgan Jasurbek yetishtirgan mahsulotlar tuman bozorida sotilmoqda. Qahramonimiz yaqin kunlarda tarvuz hosilini eksportga chiqarish niyatida.

Nargiza MUSAYEVA,

Foto **Anvar TOSHTEMIROV**

O'qish istagini bildirgan yoshlar orasida chet elda ishlab qaytgan Zafarbek Anvarov ham bor. Hozir Zafarbek sanoat zonasidagi gulqog'oz ishlab chiqaruvchi korxonaning buxgalteri sifatida ish boshladi. U o'quv kursida ta'lim olish bilan birga ishni ham davom ettiradi. Ta'limni tamomlab, yetuk mutaxassis bo'lishiga ishonaman. Chunki unda ham tajriba, ham nazariy bilim bo'ladi.

Yaqin kunlarda bunday yoshlarimiz soni yanada ko'payadi. Sababi loyiha bo'yicha sanoqli kunlarda darslarimiz boshlanadi. Loyiha amalga oshgach bunday yo'nalishdagi ishlarni yanada kengaytirish niyatim bor.



➤ Zafarbek ANVAROV:




– Uzoq muddat chet elda ishladim. Otam vafotidan so'ng yurtimga qaytdim va ishsiz qoldim. Bu orada mahalla yoshlar yetakchisi Azimjon aka uyimizga kelib, xatlov qilganda ishsizligimni aytdim. Azimjon va hokim yordamchisi Usmon Zufarov bilan tumanimizda joylashgan "Kichik sanoat zonasi"dagi gulqog'oz ishlab chiqaruvchi korxonah rahbari bilan suhbatlashib, buxgalterlik bo'yicha ishga joylashdim. Endi buxgalteriyasohasida o'quv kursiga ham boradigan bo'ldim.

3 MILLION SO'M
SARFLAB,
30 MILLION SO'M
DAROMAD
OLISHNI MAQSAD
QILGAN YOSH
TADBIRKOR



"TARVUZGA KELING!"



MATONAT

ZOMIN TUMANIDA TASHKIL ETILGAN OROMGOH IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLARNING BILIM SALOHIYATINI OSHIRADI

"Matonat" oromgohi respublikamizdagi nogiron yoshlarni bir makonda birlashtiradi. Zomin tumanida tashkil etilgan oromgoh bu toifadagi yoshlarning bilim salohiyatini oshirishni ko'zlagan.

Oromgohda "imkoniyati cheklangan" iborasini ishlatish qat'iy tanqis qildi. O'tkazilgan shaxmat va mini futbol musobaqalari ham ishtirokchilarning imkoniyati cheksiz ekanidan dalolat berdi. "Chegarasiz" mavzusidagi videorolik yoshlarga chinakam motivatsiya ulashdi. "Aslida tananing majruhligidan emas, qalb majruhligidan asrasin", – deydi "Chegarasiz" loyihasi qahramoni Nilufar Ahmedova.

Matonatчилarni oldinda hali ko'p surprizlar kutmoqda. Loyiha doirasida ko'plab uchrashuv, seminar, treninglar rejalashtirilgan.





U ENDI BOLA EMAS, KATTA HAM EMAS!

MUOMMOLI VAZIYAT:

– 5-sinfni tugatayotgan o'g'lim eng yaqin o'rtoqlari bilan tortishib qolib, yuzi qizarib keldi. Aytishicha, arzimmas tortishuv mushlashuvga olib kelgan. Uni to'rt nafar sinfdoshi kaltaklabdi. Bu voqea bizni qattiq tashvishga soldi, boisi oilamizda hech qanday kamchilik yo'q. Do'st-inoq bo'lib yurgan bolalar nega bunaqa odat chiqarisharkin, biror kor-hol bo'lganda nima qilardik?! O'qituvchisi ularni tartibga keltirishni va'da qilib, bir-biri bilan yarashtirib qo'ydi. Ammo bu bilan mening xavotirim bosilmayapti.

Shodiya SATTAROVA,
Toshkent shahri

VAZIYATGA YECHIM:

– O'g'lingiz batartib va tengdoshlari bilan yaxshi muomaladagi o'quvchi bo'lgan. Kutilmagan tortishuv va bolangizga mush tushirishgani sizga qattiq ta'sir qilgan, albat-

ta. O'g'lingiz hozirgi paytda mustaqil shaxs sifatida shakllanish davrida. 11–12 yoshda o'smir mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. U xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil qilishni o'rganadi. Endi u bola emas, katta ham emas! Bu formula o'smirlik davri xarakterini bildiradi.

Bu yoshda o'smirning kechin fiziologik, psixologik o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Kattalarga nisbatan agressivlik, negativ fikrlash singari alomatlar bo'lishi mumkin. Siz unga o'zi bajara oladigan ayrim yurmushlarni mustaqil bajarishga sharoit yarating. Misol uchun, "Bugun ishga kech qolyapman, kiyimimni o'zing tayyorlab olgin", "Maktabdan qaytayotganingda mana bu ro'yxatdagi mahsulotlarni bozordan olib qaytgin" kabi ishlar bo'lishi mumkin. U uddalay olgan har bir xatti-harakatidan o'zini mustaqil shaxs sifatida tan ola boshlaydi va jamoaviy tartibni ham saqlashni o'rganadi.

O'smirlik davridagi yetakchi faoliyat – o'qish, muloqot hamda mehnat. Siz o'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi – do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarni aniqlash va egallashga e'tiborli bo'ling. Ular kattalarning harakatlarini cheklashi, qarshilik va e'tirozidan qattiq ta'sirlanadi. Shunga

qaramay, u muloqotda kattalarning qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezadi.

O'smirlik davri o'tish – inqiroz davri, qiyin davr kabi psixologik ko'rinishlar bilan xarakterlanadi. Farzandingizning xatti-harakatlaridan xavotirga o'rin yo'q. Ammo mush-tumzo'r tengdoshlarining ruhiyatiga ta'sir etgan omillar bor. Masalan, oilada kattalar munosabati, unga hali ham bola sifatida muomala qilishlari yoki internetdagi turli videolarni ko'rishi nazoratga olinmagan.

Bunday paytda bolalarni muomalada "qanday qilib to'g'ri yozish kerak?", "qanday qilib yaxshiroq aytish mumkin?" kabi savollar juda qiziqtiradi. Shuning uchun ular gap-so'zda tortishuvchan bo'ladi. O'smirilar o'qituvchilar, kattalar va ota-onalar nutqidagi kamchiliklarga e'tibor bera-di. Kitob, gazeta, radio va televideniye suxandonlari xatolarini ilg'aydi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsa – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Xatira SAYILOVA,
Yashnabod tumnidagi
155-maktab psixologi

QANIYDI, BIZDA HAM GAZ BO'LSA...


Bahorning so'nggi kunlari. Oldinda yoz va kuz – pishiqchilik vaqti. Tabiat ham ajoyib tarovtda. Lekin bu issiq kunlarning oxiri – sovg'i bor. Topdingiz, ayni qahratonli qishda, pechlarni isitish muammosi, o'tin-u ko'mir haqida aytmoqchiman.

Hozir sovuqning nafasi yo'qdek, ammo qish kelishi bilan hali gaz yetib bormagan hududlarda isitish muammolari bosh ko'taradi. Surxon vohasidagi General qishlog'i ahli ham gaz orzusi bilan yashaydi. U yerda gaz haqida gap ketsa, aholining ko'p qatlami "qaniydi, bizda ham gaz bo'lsa", deya orzu qiladi.

Hayratlanasan kishi, nima, bu tuman, qishloqlarda qish bo'lmaydimi?! Nega bunday qishloqlarda odamlar yoz bo'yi qish g'amini yeb, tappi-yu tarasha ortmoqlab yurishga majbur bo'ladi?! Daraxtlarning o'tin uchun kesilishi muammoning ikkinchi tomonini ko'rsatadi. Bu muammolar men aytmasam ham oynadek ravshan, aslida.

Xo'sh, qahraton qishni hamma kabi xotirjam kutish kerakmi yoki qish g'amini yozda yeyish – o'tin g'amlash uchun tinmay qora mehnat qilibmi? Shu o'rinda viloyat, tuman, qishloqlardagi isitish, suv va elektr energiya tarmoqlariga yanada ko'proq e'tibor berilsa, nur ustiga nur bo'lardi. Zero, qishning tashvishini yozda o'ylash kerak!

Sabrina IBRAGIMOVA



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

TADBIRKORLAR KO'RGAZMASI



Nasiba Toyloqova "Yoshlar daftari"ga kiritilgach imtiyozli kredit olib tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi. Hozirgi kunda u "Sabr" nomli o'quv markazi egasi. "Jahon banki"dan kredit olib, markaz faoliyatini kengaytirdi. Kompyuter savodxonligi, asalarichilik, to'quvchilik, pardachilik, zardo'zlik, issiqxona yo'nalishida kadrlar tayyorla-

moqda. Nasiba shu orqali 50 ta ish o'rnini yaratadi.

Yoshlar ishlari agentligi va "Yoshlar – kelajagimiz" jam'asmasi hamkorligida poytaxtimizdagi "Yoshlar ijod" saroyida Nasiba kabi yosh tadbirkor, hunarmand va fermerlarning tajriba hamda yutuqlarini ommalashtirish, mazkur sohalariga yoshlarning qiziqishini kuchaytirish maqsadida ko'rgazma tashkil etildi. Unda mamlakatimizning barcha hududlaridan

kelgan 100 dan ortiq yosh tadbirkor, hunarmand va fermerlar o'z mahsulotlarini namoyish etdi.

Ko'rgazmada yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhokama qilinib, yosh fermerlariga bepul yer uchastkalari ajratish amaliyoti, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini yaratish, subsidiyalash asoslari borasida ma'lumot ham berildi.

“YOSH KITOBXON”

tanlovi

15-19 yosh toifasi g'oliblari:



2017-YIL

Ismoilova Sharofat Salimjon qizi,
Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani
"Boboshbek" mahallasi



2018-YIL

Xolboyeva Shohsanam Anvarjon qizi,
"Kelajak bunyodkori" medali sovrindori.
Toshkent shahri Sergeli tumani
"Qipchoq" mahallasi




2019-YIL

Shodiyeva Surayyo Salohiddin qizi,
Qashqadaryo viloyati Koson tumani
"Mudin" mahallasi



2020-YIL

Mamtaliyeva Fotimaxon Odiljon qizi,
"Shuhrat" medali sovrindori.
Andijon viloyati Oltinkol tumani
"Dalvarzin" mahallasi



2021-YIL

Avazova Sevinch Polat qizi,
Toshkent shahri Yangi hayot tumani
"Xo'ja Uchqun" mahallasi



MATONATLI KITOBXON:

Hamdamova Shamshoda Saidahmad qizi,
Buxoro viloyati

Yosh kitobxon ko'zi ajiz bo'lishiga qaramasdan tanlovning 2020, 2021-yillarda o'tkazilgan respublika bosqichida ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

20-30 yosh toifasi uchun

T/r	Kitob nomi	Muallifi
1.	"Malikayi ayyor" dostoni (aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li)	Xalq og'zaki ijodi
2.	"Hasanxon" dostoni (aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li)	Xalq og'zaki ijodi
3.	"Tohir va Zuhra" dostoni (aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li)	Xalq og'zaki ijodi
4.	"Lison ut-tayr"	Alisher Navoiy
5.	"Boburnoma"	Zahiriddin Muhammad Bobur
6.	"Chinar"	Asqad Muxtor
7.	"O'tkan kunlar"	Abdulla Qodiriy
8.	"Puankare" (hikoya)	Abduqayum Yo'ldoshev
9.	"Bog'dagul" (hikoyalari)	Bahodir Qobul
10.	"Spitamen"	Maqsud Qoriyev
11.	"Genetik" (roman)	Isajon Sulton
12.	"Qora quyun"	Normurod Norqobilov
13.	"Ultantoz"	Olim Toshboev
14.	"Bonu"	Iqbol Mirzo
15.	"Tushda kechgan umrlar"	O'tkir Hoshimov
16.	"Fotima va Zuhra" (roman)	O'lmas Umarbekov
17.	"Navoiy"	Oybek
18.	"Otamdan qolgan dalalar"	Tag'ay Murod
19.	"Jaziramadagi odamlar"	Luqmon Bo'rixon
20.	"Muvozanat"	Ulug'bek Hamdam
21.	"Qo'rqama"	Javlon Javliyev
22.	"Yolg'iz" (qissa va maqolalar)	Xurshid Do'stmuhammad
23.	"Bozor"	Xurshid Do'stmuhammad
24.	"Boburiyoma"	Xayriddin Sultonov
25.	"Kuz"	Usmon Azim
26.	"Sabr daraxti"	Rauf Parfi
27.	"Jayhun ustida bulutlar"	Mirkarim Osim
28.	"Abadiyat oralab" (she'rlar)	Shavkat Rahmon
29.	"Oftoboyim", "Sarob" (hikoyalari)	Said Ahmad
30.	"Imom Matrudiy"	Luqmon Bo'rixon
31.	"Sho'rodan qolgan odamlar"	Shoyim Bo'tayev
32.	"Ro'yo yoxud Gulistonga safar"	Ahmad A'zam
33.	"Pahlavon Muhammad"	Asad Dilmurod
34.	"Pakananing oshiq ko'ngli" (qissa)	Erkin A'zam
35.	"Turon malikasi"	Mirmuhsin
36.	"Ko'ngil ozodadur" (qissalar)	Xayriddin Sultonov
37.	"Quyoshga qarab oqqan suv" (she'rlar)	Muhammad Yusuf
38.	"Yillar armoni" (she'rlar)	Abdulla Oripov
39.	"Tabassum" (she'rlar)	Erkin Vohidov
40.	"Saylanma" (hikoyalari) 1-jild	Shukur Xolmirzayev
41.	"Saylanma" (she'rlar)	Tilak Jo'ra
42.	"Alisher Navoiy" (roman)	Isajon Sulton
43.	"Javzo" (she'rlar)	Azim Suyun
44.	"Murdalar gapirmaydilar"	Tohir Malik
45.	"Qizil va qora"	Stendal
46.	"Begona"	Alber Kamyu
47.	"Oy va sariq chaqa"	Somerset Maem
48.	"Nyurenbergga sayohat" (safarnoma, qissa va hikoyalari)	Hermann Hesse
49.	"Tirilish"	Lev Tolstoy
50.	"Uch og'ayni"	Erix Mariya Remark
51.	"Asrga tatigulik kun"	Chingiz Aytmatov
52.	"Jinoyat va jazo"	Fyodor Dostoyevskiy
53.	"Dengiz zahmatkashlari"	Viktor Gyugo
54.	"Martin Iden"	Jek London
55.	"Gorio ota" (roman)	Onore de Balzak
56.	"Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori"	Ch.Aytmatov, M.Shoxonov
57.	"O'talar va bolalar"	I.Turgenev
58.	"Mening Dog'istonim"	Rasul Hamzatov
59.	"Alvido, qural"	Ernest Xeminguey
60.	"Saylanma"	Maxtumquli
61.	"Dashti qipchoq lochini yoxud Shayboniyxon qissasi"	Sa'dulla Siyoyev
62.	"Iztirob" (hikoyalari)	O'tkir Hoshimov
63.	"It'yurak" (qissa)	Mixail Bulgakov
64.	"Aqchagul"	M.Nizanov
65.	"Jaloliddin Rumiy"	Radiy Fish
Ilmiy-ommabop adabiyotlar		
66.	"G'aroyib olam"	A.Sultonov
67.	"Boboso'z izidan"	Eshqobil Shukur
68.	"Turkiston"	Yujin Skayler
69.	"Yozuvlar o'tmish sirlari shohidi"	Viktor Drachuk
Nashrlar		
70.	"Yoshiik" jurnali (2022-yil sonlari)	O'zbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jurnali

Siz ham tengdoshlaringiz kabi "Spark" avtomobilini qo'lga kiritishni xohlasangiz, telegram-da quyidagi manzilda ro'yxatdan o'ting:

@yoshkitobxon_bot

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**MUHAMMADSHUKUR
MUHAMMADJONOV**

Musahihchilar:
**Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 18-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida tanlidi va saflandildi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Shara" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma taboq. Korxonada Buyuk Turon ko'chasi, 41, indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-555. Adadi - 10586. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6